

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA  
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**ULLIYEVA SANOBAR HAYDAROVNA**

**BADIIY OBRAZ YARATISHDA LISONIY BIRLIKLARNING  
FUNKSIYALARI  
(O‘tkir Hoshimov asarlari misolida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Ulliyeva Sanobar Haydarovna**

Badiiy obraz yaratishda lisoniy birliklarning funksiyalari (O‘tkir Hoshimov asarlari misolida).....

**Уллиева Санобар Хайдаровна**

Функции языковых единиц в создании художественного образа (на примере произведений Уткира Хошимова).....

**Ullieva Sanobar Khaydarovna**

Functions of linguistic units in the creation of an artistic image (using the example of the works of Utkir Khoshimov) .....

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA  
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**ULLIYEVA SANOBAR HAYDAROVNA**

**BADIIY OBRAZ YARATISHDA LISONIY BIRLIKLARNING  
FUNKSIYALARI  
(O‘tkir Hoshimov asarlari misolida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch – 2025**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2846 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy Kengash veb-sahifasining [www.urdu.uz](http://www.urdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Do'simov Zaribboy**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Gayliyeva O'g'ilbay Kurbanmurodovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Atajonova Anorgul Jumaniyazovna**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Abu rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD03/30.12.2019.Fil.55.02 raqamli Ilmiy kengashning "08" may 2025-yil soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (+99862) 224-67-00; faks: (+99862) 224-67-00 e-mail: [www.fil-ik.urdu.uz](http://www.fil-ik.urdu.uz))

Dissertatsiya bilan Abu rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (Q-793) raqami bilan ro'yxatga olingan. Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (+99862) 224-67-00; e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "19" april da tarqatildi.

(2025-yil "19" april dagi 51 raqamli reyestr bayonnomasi).



**D.Q.G'ayipov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, f.f.d. (DSc), professor

**S.S.Atajanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kuzibi, f.f.b.f.d. (PhD), dotsent

**A.D.O'razboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi v.v.b.,  
f.f.d. (DSc), professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davri antroposentrik tilshunoslik ravnaq topgan davrga aylandi. Sohada yuz berayotgan tub o'zgarishlar natijasida jahonning yetakchi olimlari tomonidan badiiy matnning lisoniy tahlili, matnga bog'liq stilistik, lingvopoetik va psixolingvistik jihatlar tadqiqotchilar diqqatini tortmoqda. Xususan, obraz (lisoniy surat) yaratishning lingvistik asoslari, badiiy obrazning lisoniy shaxs sifatidagi talqini, lisoniy shaxs va nutqiy portret yaratishda til vositalaridan foydalanish imkoniyatlari, ularni shakllantiruvchi lingvistik omillar hamda milliy xarakter yaratuvchi lisoniy vositalar kabi masalalar bugungi kunda dolzarblik kasb etmoqda. Muayyan tildagi badiiy matnning lisoniy tahlilida muhim o'rin tutadigan lisoniy shaxs va nutqiy portretning lingvistik maqomini zamonaviy yondashuvlar asosida o'rganish, ayniqsa, badiiy matndagi inson va uning nutqini shakllantiruvchi til birliklarini o'rganish ijodkor mahoratini baholashda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Dunyo tilshunosligida badiiy asarlar tili va u bilan bog'liq lingvistik birliklarning lingvopoetik vazifalarini tavsiflash masalasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tahlil qilina boshlandi. Jumladan, har qanday badiiy asarning ustunligi undagi lisoniy shaxslar nutqida qo'llangan fonetik, leksik, frazeologik, grammatik obrazli birliklar hamda badiiy tasvir vositalarining qay darajada samarali va o'rinli ishlatilganligi bilan belgilanadi. Matnda so'zlar, gap tuzilishi, leksik-semantik, ritmik-intonatsion birliklarning tanlanishi ham badiiy uslub talablaridan kelib chiqadi. Nasriy matnning kognitiv-kommunikativ jihatlari, badiiy nutqning uslubiy imkoniyatlari, obraz yaratuvchi lingvistik birliklar, yozuvchilar qo'llagan leksik-semantik va stilistik vositalar tahlili orqali lisoniy shaxs obrazining lingvistik o'ziga xosliklarini lingvopragmatik va lingvopoetik o'rganish ilmiy zarurat hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, yozuvchining u yoki bu til sathi birliklarini qo'llashdagi o'ziga xosligini mufassal ko'rsatishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar yaratildi. Bu ilmiy izlanishlarda, asosan, badiiy tilni o'rganishda ko'proq leksik birliklar lingvopoetikasiga e'tibor qilindi. Ammo tilshunosligimizda badiiy matndagi lisoniy birliklarning obraz yaratish vazifalari hali atroflicha o'rganilgan emas. Shu ma'noda, ushbu tadqiqotda O'tkir Hoshimov nasri tilining lingvopoetik va psixolingvistik xususiyatlari hamda tilshunoslikning o'rganish obyektlaridan sanalgan lisoniy obraz yaratishning usullari antroposentrik paradigma doirasida tadqiq etilganligi mavzuning dolzarbligini dalillaydi. Shu bilan birga, zamonaviy o'zbek tilining aksariyat xususiyatlarini o'zida mujassam qilgan asarlardagi lingvistik obrazni ifodalash usullarini tadqiq etish, ijodkorning til mahorati, u ishlatgan til birliklari tizimi vazifalarining o'ziga xosliklarini zamonaviy talablar asosida o'rganish bugungi kunda juda muhim sanaladi, shuningdek, "Unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni

ta'minlash"<sup>1</sup> kabi ishlarga ham muhim hissa bo'lib qo'shilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF–5850-son “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF–6084-son “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF–6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmonlari; shuningdek, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ–3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ–4479-son “O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari” ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bugungi kunda jahon filologlarining diqqat markazida bo'lgan badiiy matnning lingvistik tahlili, xususan, “lisoniy shaxs” masalasi ham tilshunoslikda alohida ahamiyatga ega. Bu yo'nalishda jahon tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham muayyan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, rus tilshunosligida badiiy matn (nasr)ning kognitiv-kommunikativ jihatlari, badiiy nutqning uslubiyati, obraz yaratuvchi lingvistik birliklar yuzasidan anchagina salmoqdor tadqiqotlar yaratilgan<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 6084-сонли Фармони // “Халқ сўзи” газетаси. – 2020, 22 октябрь. – № 267 // <https://lex.uz/docs/4561730>.

<sup>2</sup> Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – Москва: Издательство МГУ, 1957. – С.121.; Новиков Л.А. Художественный текст и его анализ. – Москва: Русский язык, 1988.; Халикова Н.В. Категория образности художественного прозаического текста: автореф. дисс. докт. филол. наук. – Москва, 2004.; Гончарова Е.А. Когнитивно-коммуникативные параметры ситуации порождения, восприятия и интерпретации литературного текста // Язык. Текст. Культура. Studia Linguistica, XVI. – СПб., 2007. – С. 87.; Наумова Н.Г. Языковые средства создания образа П.И.Чичикова (на материале поэмы Н.В.Гоголя “Мертвые души”). – Киров: Издательство ВятГГУ, 2010. – С.124.; Чернова С.В., Калинина Л.В. Интерпретация образа человека как лингвистическая проблема. – Вестник Вятского государственного гуманитарного университета, 2010. – №2 (2). – С. 12.; Игнатов И.А. Личность: лингвистический анализ (семантика и функционирование слова личность в русском языке; человек как носитель личностных характеристик и его отображение в художественном тексте): Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Киров, 2013. – С. 7.; Амирханян

O'tgan asrning ikkinchi yarmida D.N.Shmelyev tilning obraz yaratishdagi ahamiyati<sup>1</sup>, V.V.Vinogradov "lisoniy shaxs" atamasi, nasriy asarlar tili va uslubi<sup>2</sup>; G.V.Stepanov tilni badiiy matn qurilishida asosiy unsur sifatida belgilab, so'zning boshqa san'at turlari materiallaridan tubdan farq qilishiga e'tibor qaratgan edi<sup>3</sup>. O.S.Axmanova lingvistik terminlar lug'atini yaratgan bo'lsa, A.A.Lipgart badiiy asarning so'z san'ati sifatidagi mohiyati lingvopoetika asosida to'laqonli ochilishini o'z tadqiqotlarida<sup>4</sup> dalillaydi.

O'zbek tilshunosligida o'zbek nutq odati, uning paralingvistik va sotsiolingvistik tomonlari Sh.Iskandarova<sup>5</sup> tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, aynan "lisoniy shaxs" mavzusiga aloqador dastlabki ilmiy fikrlarni D.Lutfullayeva, D.Xudoyberganovalar bildirishgan<sup>6</sup>. Tarjimonning lisoniy shaxs sifatidagi faoliyatiga doir, lingvopersonologiya, uning o'rganish obyekti, tadqiqot yo'nalishlari haqidagi qarashlar bugungi kunda yaratilayotgan tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga egaligini Sh.Safarov ta'kidlaydi<sup>7</sup>. D.Niyazova tomonidan esa lisoniy shaxs tiplari O'.Hoshimov asarlari misolida o'rganilgan. Ushbu tadqiqotchi badiiy matnda lisoniy shaxs tiplarini shaxsga xos sifatlar – ijtimoiylik belgisi, yosh xususiyatlari, jinsi, millati, dini; yakka yoki jamoa nutqini anglatishiga ko'ra guruhlarga ajratadi<sup>8</sup>. Z.R.Muqimova o'z tadqiqotida<sup>9</sup> O'.Hoshimov asarlari tilining lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qiladi. Uning "O'tkir Hoshimov nasrining tili o'ziga xos shunday betakror, noyob durdona va sirli dunyoki, unda har bir so'z muntazam ma'no-mazmun, tiniq obraz, yaxlit badiiyat uchun xizmat qiladi"<sup>10</sup>, – degan fikrlari juda o'rinli. N.Normurodova lisoniy shaxsni dastlab ingliz tili materiallari asosida lingvokognitiv, lingvomadaniy, pragmatik aspektlarda o'rganagan bo'lsa<sup>11</sup>, doktorlik dissertatsiyasida diskursiv shaxs terminini qo'llaydi hamda mazkur terminning yuzaga kelish sababini kommunikatsiya jarayonida diskursiv amaliyot natijasida lisoniy shaxs terminining mohiyatini mazmunan kengayganligi bilan izohlaydi<sup>12</sup>.

Lisoniy shaxs bevosita nutqiy jarayonda namoyon bo'ladi. O'zbek muloqot xulqi, o'ziga xosliklari, psixologik aspekti, hudud hamda jins xususiyatlariga ko'ra

---

В. Образ персонажа в аспекте семантической структуры целостного художественного текста //Сборник материалов конференции "Язык и право: актуальные проблемы взаимодействия". – Москва, 2015.

<sup>1</sup> Шмелев Д.Н. Слова и образ. – Москва: Наука, 1964. – 120 с.

<sup>2</sup> Виноградов В.В. Избранные труды. О языке художественной прозы. – Москва, 1980. – 360 с.

<sup>3</sup> Степанов Г.В. Язык. Литература. Поэтика. – Москва: Наука, 1988. – С.148.

<sup>4</sup> Липгарт А.А. Методы лингвопоэтического исследования. – Москва, 1997. – 220 с.

<sup>5</sup> Искандарова Ш. Ўзбек нутк одафининг мулоқот шакллари. Филол.фан. номз. ...дисс. – Самарқанд, 1993. –140 б.

<sup>6</sup> Лутфуллаева Д., Худойберганова Д. Тилшуносликда лисоний шахс муаммоси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – № 6. – Б.36-37.

<sup>7</sup> Сафаров Ш. Таржimonнинг лисоний шахс сифатида бажарадиган фаолияти // Хорижий филология. – Самарқанд, 2018. – №3. – Б.9-21.

<sup>8</sup> Ниязова Д. Бадий матнда лисоний шахс типлари. Филол. фан.б.фалс. док. ...дисс. – Қарши, 2020. – Б. 42.

<sup>9</sup> Муқимова З.Р. Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари. Филол. фан.б.фалс. док. ...дисс. – Тошкент, 2020. – 160 б.

<sup>10</sup> Муқимова З.Р. Ко'rsatilgan manba. – Б.37.

<sup>11</sup> Нормуродова Н. Выражение языковой личности в художественном диалоге (на материале английского языка): Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Самарқанд, 2012. – 26 с.

<sup>12</sup> Нормуродова Н. Инглиз бадий дискурсида антропоцентризмнинг лисоний воқеланиши: Филол.фан.д-ри. (DSc) ... дисс.автореф. – Тошкент, 2020. – Б.18.

farqlanuvchi belgilar S.Mo‘minov<sup>1</sup> tomonidan; lingvomadaniy tushunchalaridan bo‘lgan lisoniy shaxs, unda sotsial belgilarining ifodalanishi, vosita, usullari D.Hasanova tomonidan tadqiq qilingan. Tadqiqotchi lisoniy birliklarning qo‘llanilishi turli ijtimoiy omillarga bog‘liq ekanligini, bu o‘z navbatida, ijtimoiy rollar bilan bog‘liq tarzda yuzaga chiqishini ko‘rsatib bergan<sup>2</sup>. Ammo O‘tkir Hoshimov asarlarining ayrim jihatlari yoritilgan maqolalardan<sup>3</sup> tashqari, adib qissa qissa va romanlari asosida tilshunosligimizda badiiy matndagi lisoniy birliklarning obraz yaratish vazifalari hali monografik jihatdan o‘rganilgan emas. Demak, har bir ijodkor mahorati uning lisoniy birliklarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish sirlaridan yaxshi xabardorligida va nasriy asarlarida til imkoniyatlaridan, rang-barang tasviriy vositalardan samarali foydalanishida namoyon bo‘lar ekan, adib qissa va romanlari misolida til birliklari va tasvir vositalarning o‘ziga xosliklari hamda keng imkoniyatlarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Urganch davlat universitetining “O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejasining tarkibiy qismi sifatida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** badiiy obraz yaratishdagi lisoniy birliklarning vazifalarini O‘tkir Hoshimov qissa va romanlari asosida tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalarini** quyidagilar tashkil etadi:

badiiy matnda obraz yaratishning lingvistik asoslari, “lisoniy shaxs” sifatida badiiy obrazni til birliklari yordamida ifodalash usullarini lingvistik tadqiqotlar tahlili asosida aniqlash;

tilshunoslikdagi personaj leksemasining ma‘nosi va genezisiga oid nazariy fikrlarga tayanib, adibning adabiy personaj yaratishda qo‘llagan so‘z, ibora va hikoya qilish texnikasini tanlash, dialog, monolog, ko‘chim va takrorlardan foydalanish mahoratini lingvistik asoslash;

O‘tkir Hoshimov qissalaridagi nutqiy portret shakllantiruvchi lisoniy birliklarni qo‘llashning milliy-madaniy va lingvokognitiv omillarini aniqlab, obraz yaratuvchi metaforalarning leksik-semantik tizimdagi o‘rnini aniqlash;

O‘tkir Hoshimov romanlaridagi badiiy matn ekspressivligini ta‘minlovchi fonetik-fonologik, leksik-semantik, grammatik vositalarning obraz yaratishdagi ahamiyati va funksional-stilistik, konnotativ xususiyatlarini yoritish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘tkir Hoshimovning “Bahor qaytmaydi”, “Dunyoning ishlari” qissalari hamda “Nur borki, soya bor”, “Ikki eshik orasi” va “Tushda kechgan umrlar” romanlari tanlangan.

---

<sup>1</sup> Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. – Фарғона, 2021. – 224 б.

<sup>2</sup> Ҳасанова Д. Ўзбек тилида шахс социал белгиларини ифодалаш омиллари, воситалари ва усуллари. Филол. фан.д-ри. (DSc) ...дисс. – Қўқон, 2022. – 214 б.

<sup>3</sup> Atajanova A. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida ayol va zamon qiyofasi // Central Asian academic journal of scientific research volume. 2 Issue, 2022 ISSN:2181-2489.; Rajabova S., Xushanov A. O‘tkir Hoshimov asarlarida urush fojialari // Евразийский журнал академических исследований, 2(11), 746-747. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/5137>.; Abdushukurova G. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi badiiy tahlili. Proceedings of Global Technovation. 2nd International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from London, U.K. <https://conferencepublication.com> December 28th, 2020.

**Tadqiqotning predmetini** O‘tkir Hoshimov qissa va romanlaridagi obraz yaratishda foydalangan lisoniy birliklar tizimi tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda struktural-sistem, kognitiv, pragmatik, komponent, lingvokulturologik va lingvostatistik va tavsiflash kabi tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

lingvistik tadqiqotlardagi badiiy obrazni lisoniy ifodalashning usullari tahlili asosida lisoniy shaxsni tadqiq qilish so‘zlar, shuur orqali tan olinadigan kognitiv mexanizmlar hamda qahramonlar xarakterini tavsiflashda asosiy tayanch ekani dalillangan;

badiiy matndagi lisoniy shaxsning nutqiy faoliyati fonetik, leksik, morfemik, morfologik, sintaktik sath birliklari orqali shakllanishi va obraz yaratishda bu birliklarining pragmatik, kognitiv, lingvokulturologik, paradigmatic va sintagmatik xususiyatlari juda ahamiyatli ekanligi yoritilgan;

lisoniy shaxsning tarkibiy qismlari, uni ifoda etuvchi til birliklari tavsiflanib, ushbu birliklarning milliy xarakterlar obrazini yaratishdagi o‘rni, mohiyati hamda badiiy matndagi semantik-pragmatik va funksional-stilistik xususiyatlari asoslangan;

O‘tkir Hoshimov qissalaridagi lisoniy obrazlarning badiiy matnda implitsit va eksplitsit ifodalanishi, nutqiy portret shakllantiruvchi lisoniy birliklarni qo‘llashning milliy-madaniy va lingvokognitiv omillari hamda obraz yaratuvchi metaforalarning leksik-semantik tizimdagi o‘rni misollar yordamida ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O‘tkir Hoshimov qissa va romanlarida qo‘llangan lisoniy obraz yaratuvchi til birliklarining, xususan, inson obrazini lisoniy ifodalashning usul va yo‘sinlari, badiiy matn emotsionalligini ta‘minlovchi ekspressiv fonetik, leksik, grammatik vositalar; uslubiy figura va troplar bo‘yicha to‘plangan materiallar, ularni tadqiq etish yuzasidan chiqarilgan xulosa hamda natijalar, shuningdek, ishda foydalanilgan lisoniy materiallar tahlili lingvopoetikani yangi ilmiy nazariy tushunchalar bilan boyitishi; obraz yaratishda asosiy vazifa bajaruvchi lisoniy paradigma va nutqiy obrazlar (alliteratsiya, assonans, metafora, metonimiya, parallelizm, antiteza kabilar)ni tahlil qilishdagi ilmiy qarashlarni rivojlantirishi hamda lingvopoetika bo‘yicha tadqiqotlar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi asoslangan;

nasriy asarlarda obraz yaratuvchi lisoniy birliklarning funksional-stilistik xususiyatlariga, matn emotsionalligini ta‘minlovchi ekspressiv vositalarga, shuningdek, leksik zaxira va nutq uslubi, fonetik va grammatik, madaniy va ijtimoiy hamda shaxsiy kabi lisoniy shaxsning asosiy xususiyatlariga oid materiallar “Badiiy matnning lisoniy tahlili”, “O‘zbek tili stilistikasi”, “O‘zbek lingvopoetikasi”, “Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari” fanlari bo‘yicha mavjud o‘quv qo‘llanmalarini boyitishi; nasriy asarlar lingvopoetikasini o‘rganuvchi magistrant, doktorant va mustaqil tadqiqotchilar uchun ham ilmiy asos bo‘la olishi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** badiiy obraz yaratishda lisoniy birliklarning vazifalari tadqiqini belgilashda, nazariy ma'lumotlarni bayon etishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, tahlilga tortilgan faktik materiallar antroposentrik metodlar asosida tasnif qilinib, ishonchli nazariy manbalar va lingvistikaning zamonaviy ilmiy yutuqlaridan foydalangan holda talqin qilinganligi; dissertatsiya ishi bo'yicha ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarilganligi, taklif, tavsiya va xulosalar asosida olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati lingvopoetika, lingvopragmatika, lingvokulturologiya va kognitologiya sohasidagi izlanishlarga doir mavjud nazariy qarashlarni yangi bilimlar bilan boyitishga xizmat qilishi; lisoniy birliklarning obraz yaratishdagi mohiyatini anglashda, ularning funksional-stilistik xususiyatlari va ularni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlashda muhim nazariy asos vazifasini o'tashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati obraz yaratuvchi lisoniy birliklarning semantik-pragmatik va funksional-stilistik tadqiqi materiallari obraz yaratuvchi lisoniy birliklar lug'atini tayyorlash; tilshunoslikning kognitologiya, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, uslubshunoslik, nutq madaniyati, badiiy matn stilistikasi kabi fanlar bo'yicha yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuvi; insonni tavsiflovchi badiiy tasvir vositalarining lingvistik tabiatini ta'riflab berish; badiiy matnning lisoniy tahlili hamda o'zbek tili stilistikasi muammolariga oid maxsus kurs va seminarlarni tashkil qilishdagi samaradorligi bilan ifodalanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'tkir Hoshimov qo'llagan badiiy obraz yaratishdagi lisoniy birliklarning vazifalarini tilshunoslikdagi antroposentrik paradigma doirasida tadqiq etish asosida:

lisoniy shaxsning tarkibiy qismlari, uni ifoda etuvchi til birliklari tavsiflanib, ushbu birliklarning milliy xarakterlar obrazini yaratishdagi o'rni, mohiyati hamda badiiy matndagi semantik-pragmatik va funksional-stilistik xususiyatlari asoslangan xulosalardan O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017–2020-yillarda bajarilgan FA-FI-005 raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihani amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi FA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2023-yil 22-dekabrda №503/1-sonli ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqotchining ilmiy-nazariy fikr va ma'lumotlari loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar hamda monografiyalarning, roman janri haqida olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy saviyasini oshirishga nazariy asos bo'lib xizmat qilishi dalillangan;

lisoniy birliklarning milliy xarakterlar obrazini yaratishdagi o'rni, mohiyati hamda badiiy matndagi semantik-pragmatik va funksional-stilistik xususiyatlari, inson obrazini lisoniy birliklar yordamida ifodalashning usul va yo'sinlari, badiiy matnda lisoniy birliklarni qo'llashning milliy-madaniy va lingvokulturologik omillari, adabiy personajlarni lingvistik o'rganishning o'ziga xos jihatlari

asoslangan xulosalardan O‘zRFA Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017–2020-yillarda bajarilgan FZ-2016-09081165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusida fundamental loyihani amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi FA Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2024-yil 16-yanvardagi №151\1-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada tadqiqot natijalarini amaliy qo‘llash fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalarning saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

badiiy matndagi lisoniy shaxsning nutqiy faoliyati fonetik, leksik, morfemik, morfologik, sintaktik sath birliklari orqali shakllanishi va obraz yaratishda bu birliklarining pragmatik, kognitiv, lingvokulturologik, paradigmatic va sintagmatik xususiyatlari, badiiy asar tili badiiy matndagi lisoniy obraz asosida umumlashma hissiy-vizual tasvirga ega bo‘lgan, ushbu voqelikning turli va turfa xususiyatlarini o‘zida jamlagan, assotsiativ-semantik maydon hosil qiluvchi maxsus fonetik, leksik-frazeologik va grammatik vositalar orqali ifodalanadigan birlik ekanligi asoslangan ilmiy xulosalaridan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2020–2023-yillarda amalga oshirilgan AM-FZ-201908172 raqamli “O‘zbek tilining ta‘limiy korpusini yaratish” nomli grant loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 21-avgustdagi №04/1-2135-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada o‘zbek tili ta‘limiy korpusi lisoniy shaxs nutqi, badiiy asar tili, lisoniy obraz yaratuvchi vositalarga aloqador ma‘lumotlar bilan boyitilgan hamda bu tavsiyalar loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar saviyasi oshishini ta‘minlagan.

O‘tkir Hoshimov qissalaridagi lisoniy obrazlarning badiiy matnda yashirin va aniq ifodalanishi, nutqiy portret shakllantiruvchi lisoniy birliklarni qo‘llashning milliy-madaniy va lingvokognitiv omillari hamda obraz yaratuvchi metaforalarning leksik-semantik tizimdagi o‘rni ochib berilgan materiallardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasiga qarashli Samarqand viloyatining “STR” davlat telekanalining madaniy-ma‘rifiy ko‘rsatuvining “Assalom, Samarqand!” tonggi dasturi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 4-apreldagi №01-07/82-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada O‘tkir Hoshimov qissa va romanlari mutolaasi badiiy nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishi, lug‘at boyligining ma‘lum darajada ortishiga xizmat qilishini atroflicha yoritish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 6 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 27 ta ilmiy ish, shundan Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, xorijiy ilmiy jurnallarda 7 ta chop etilgan.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 132 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Obraz yaratishning lingvistik asoslari va lisoniy shaxs talqini”** deb nomlangan. Uning birinchi bo'limida *“Badiiy obrazni lisoniy ifodalashning usullari”* tahlil etilgan. Ma'lumki, lingvopoetika badiiy matndagi ekspressivlik va emotsionallik yuzaga keltiruvchi til birliklarining leksik-semantik, morfologik hamda sintaktik imkoniyatlarini o'ziga xos tamoyillar asosida tadqiq qiluvchi soha sanaladi. Lingvopoetik metodlar yordamida lingvistika adabiyotshunoslik bilan hamkorlikda badiiy matnning tadqiq obyekтини ancha kengaytiradi. “Lingvopoetika sohasining paydo bo'lish jarayoni ikki fanning uyg'unlashuvi<sup>1</sup>”ni boshlab beradi.

Rus tilshunosligida lingvopoetik asarlar yaratilib, bu sohaning tadqiqot tamoyillari yaratilgan: D.N.Shmelyev tilning obraz yaratishdagi ahamiyatiga diqqat qaratgan<sup>2</sup>, V.V.Vinogradov “lisoniy shaxs” atamasi, nasriy asarlar tili va uslubiga ahamiyat qaratgan<sup>3</sup>; G.V.Stepanov tilni badiiy matn qurilishida asosiy unsur sifatida belgilab, so'zning boshqa san'at turlari materiallaridan tubdan farq qilishini e'tirof qiladi<sup>4</sup>. V.Y.Zadornova va A.A.Lipgartlar badiiy asarning so'z san'ati sifatidagi mohiyat lingvopoetika asosida to'laqonli ochilishini qayd qilishadi<sup>5</sup>.

Obraz yaratishning lisoniy asoslari bevosita muallif fikrini uzatish mumkin bo'lgan belgilar tizimi bilan bog'liq. Demak, obraz – g'oyani namoyon qilish orqali voqelikni individual tasvirlash bo'lib, umumiylikni birlik orqali, mavhumni konkret orqali, nomoddiy narsani hissiy-vizual, sezish orqali tasvirlashdir. Badiiy nutq yaratilishining sharti unda muallif shaxsiy dunyoqarashining aks etishi bo'lganligi sababli, unda so'zlar o'rtasidagi assotsiativ aloqalarining roli keskin

---

<sup>1</sup> Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2018. – 212 б.; Тошхужаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси. Филол. фан.б.фалс. док. ...дисс. – Фарғона: 2017. – 140 б.

<sup>2</sup> Шмелев Д.Н. Слова и образ. – Москва: Наука, 1964. – С.3.

<sup>3</sup> Виноградов В.В. Избранные труды. О языке художественной прозы. – Москва, 1980. – 360 с. Shu muallif. Итоги обсуждения вопросов стилистики. – Москва, 1986. – С.117-189; К диалектике развития словеснохудожественных форм // Проблемы лингвистической стилистики (тезисы докладов). – Москва, 1986. – С.29-31.

<sup>4</sup> Степанов Г.В. Язык. Литература. Поэтика. – Москва: Наука, 1988. – С.148.

<sup>5</sup> Задорнова В.Я. Методы лингвопоэтического исследования. – Москва, 1997. – 220 с.; Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика: Дисс. ...докт. филол. наук. – Москва, 1996. – 656 с.

oshadi, so‘z qo‘shimcha ma’no bilan to‘yinadi, matn qo‘shimcha semantik va emotsional sig‘imga ega bo‘ladi.

Bo‘limda yana matnning tarkibiy birliklari, obrazni lisoniy ifodalashning usullari xususida A.V.Kuxarenko, M.D.Kuznes, M.Y.Skrebnev, Y.A.Goncharova, O.S.Axmanova, A.A.Lipgart kabi soha mutaxassislarining ilmiy fikrlari tahlilga tortilgan. Obrazni lisoniy ifodalashda til darajalarining ekspressivlik va emotsionallikka ega bo‘lgan barcha birliklari ishtirok etadi. Jumladan, fonetik birliklar alliteratsiya, assonans, ritm va she’riyat uchun zarur bo‘ladigan holatlarda aktuallashtirilsa, morfemik birliklar morfemalarning yangi birikmalari, ularning takrorlanishi jarayonida faollashadi. Grammatik obrazli birliklarga undovlar, yuklamalar, parallelizmlar, antitezalar va nutqni tizimli tashkil etishning boshqa shakllarini keltirish mumkin. Shuningdek, stilistik birliklar ham ekspressivlik tashiydi, ya’ni ifodaviy vazifa bajaradi.

Bobning “*Badiiy matndagi obrazning lisoniy shaxs sifatidagi tahlili*” bo‘limida badiiy obrazlarni insonning lisoniy ifodasi, shaxs modeli sifatida lingvistik tahlil qilish asnosida inson tabiati, xatti-harakatlarining mantiqiy va ruhiy asoslari, fikrlash xususiyatlari haqida ishonchli xulosalar chiqarish mumkinligi V.V.Amirxanyan, I.A.Kudryashov, Y.D.Apresyan, N.F.Alifirenko, S.Karimov, N.Mahmudov, M.Yo‘ldoshev, Sh.Safarov kabi olimlarning shu yo‘nalishdagi ilmiy ishlari tahlili asosida dalillangan. Bu tadqiqotlarning aksariyatida obrazning lisoniy shaxs sifatiga kognitiv nuqtayi nazardan baho beriladi. Jumladan, V.V.Amirxanyan “personaj kitobxon ongida qad ko‘targan allaqanday freym sifatida qaralishi mumkin, chunki asarda paydo bo‘ladigan har bir personaj kitobxon tomonidan ma’lum bir ramka ostida – avval umumiy ma’noda, keyin esa batafsilroq shaklda tasavvur qilinishi”<sup>1</sup>ni, N.F.Alifirenko “XXI asr tilshunosligida, avvalo, insonning eng muhim belgilaridan biri sanaladigan tilning biologik, psixologik va ijtimoiy asoslarini chuqur kompleks o‘rganishni nazarda tutuvchi shaxsni lisoniy talqin qilish zarur”<sup>2</sup>ligini, Y.D.Apresyan badiiy obrazni “dunyoning sodda kartinasi” orqali ongda lisoniy belgilar yordamida gavdalanuvchi insonning o‘ziga xos sxemasi<sup>3</sup> ekanini qayd qilishadi. Sh.Safarov obraz “konseptning lisoniy moddiylashuv jarayoni” bo‘lib, “voqelikning tafakkurdagi umumlashgan in’ikosi – obrazning mantiqiy “qayta ishlanishi” natijasida hosil bo‘lgan konsept lisoniy “libos” olishidan oldin ushbu “libos”ning tasavvurdagi aksi – modeli yuzaga kelishini<sup>4</sup>, S.Karimov “narsalar tasviri badiiy asarda dekorativlik vazifasining bajarilmasligi lozimligini, ba’zi yozuvchilar narsalarning uzundan uzun bayoni orqali go‘yo tasvirni jonlantirmoqchi bo‘ladilar, aslida esa asarning ojizligini yashirganday bo‘lib, vaznini og‘irlashtirishi”<sup>5</sup>ni,

---

<sup>1</sup> Amirkhanyan V. Образ персонажа в аспекте семантической структуры целостного художественного текста // Сборник материалов конференции “Язык и право: актуальные проблемы взаимодействия”. – Москва, 2015. Электрон ресурс: <http://www.ling-expert.ru/conference/langlaw5/kudryashov-amirkhanyan.html>.

<sup>2</sup> Алиференко Н.Ф. Перспективы развития науки о языке. Теория языка. Вводный курс. – Москва, 2007. – С.378.

<sup>3</sup> Апресян Ю.Д. Образ человека по данным языка (попытка системного описания) // Вопросы языкознания. 1995. – № 1. – С.37-67. Электрон ресурс: <https://vja.ruslang.ru/ru/archive/1995-1/37-67>.

<sup>4</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.23.

<sup>5</sup> Каримова С. Композицион мукамаллик учун // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – №3. – Б.51-55.

M.Yo‘ldoshev “qahramon portreti badiiy asarning o‘ziga xos muntazam unsurlaridan hisoblanishi”<sup>1</sup>ni alohida ta’kidlashadi.

Biz “har bir inson individual” degan fikrga asoslansak, “inson” va “shaxs” atamaları ekvivalent ekanligini, adabiy personaj esa, yozuvchi tomonidan muallif niyatiga muvofiq lisoniy birliklar yordamida yaratilgan inson – shaxs modeli ekanligini ham tan olishimiz lozim.

Badiiy xarakterlarni insonlarning lisoniy ifodasi, shaxs modeli sifatida qarab chiqilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, adabiy personaj inson analogi sifatida uning so‘zda ifodalangan modeli hisoblanadi. Jismoniy, ruhiy, ijtimoiy xususiyatlar jamuljami sifatida inson o‘z obrazini ifodalaydi va lisoniy birliklar yordamida batafsil hamda yorqin tavsiflanishi mumkin.

Bobning uchinchi “*Tilshunoslikda personaj leksemasining ma’nosi va genezisi*” bo‘limida “personaj” leksemasining izohli lug‘atlardagi ma’nosi va ta’riflari, tilshunoslikdagi talqinlari va personaj xarakterini yaratishda foydalanilgan turli lisoniy birliklar tahlilga tortilgan. “Personaj” leksemasi lotincha “*persona*” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “niqob” yoki “shaxs” degan ma’noni anglatadi. Bu leksemasi polisemantik xarakterga ega bo‘lib, turli sohalarda turfa ma’nolarda qo‘llanadi. Uning ilk qo‘llanilishi teatr bilan bog‘liq. Qadimgi Yunoniston va Rimda “personaj” so‘zi rol o‘ynalayotgan obrazning o‘ziga xos xakteri va hissiy holatini ifodalash uchun aktyorlar yuzlariga kiyadigan niqob ma’nosida ishlatilgan. Keyinchalik, o‘rta asrlarda bu so‘z aktyor o‘ynagan “rol” yoki “shaxs “xakteri”ga nisbatan qo‘llanila boshlandi.

Izohli lug‘atlarda personaj leksemasi, odatda, badiiy asar sujetini harakatga keltiruvchi to‘qima obraz sifatida ta’riflanadi. Masalan, rus tilining onlayn izohli lug‘atida personajga “1. Dramatik yoki adabiy asardagi harakatdagi shaxs. 2. Ko‘chma ma’noda: zot, kimsa”<sup>2</sup>; “Rus tilining izohli lug‘ati”da *personaj* “Adabiy asardagi, spektakldagi qahramon (harakatdagi shaxs), shuningdek, rangtasvir janrlarining predmeti sifatidagi shaxs”<sup>3</sup> deya; yana bir lug‘atda “Personaj – (frans. *personnage*, lot. *persona* – shaxs) badiiy, dramatik asardagi, rassomlik janrlaridagi harakatdagi shaxs. To‘qima personaj. Ikkinchi darajali personaj”<sup>4</sup>, – deya ta’riflanadi. Personaj leksemasining o‘zbek tilida qo‘llanilishi bo‘yicha quyidagi izohni keltirishimiz mumkin: “Personaj – (lot. *persona* – shaxs) san’at va badiiy adabiyotda (hikoya, roman, pyesa, kinofilm kabilarda) muallif tomonidan tasvir etilgan har bir shaxs”<sup>5</sup>.

Biz ham lug‘atlardagi izohlarda “shaxs” semasining mavjudligi tufayli personaj shaxs modeli sifatida gavdalanadi, degan umumiy fikrga qo‘shilamiz. Tilshunoslikda “personaj” leksemasi adabiy yoki badiiy matndagi to‘qima yoki real shaxs bo‘lgan lisoniy birlikni anglatish uchun ishlatiladi va muayyan

<sup>1</sup> Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.43-109.

<sup>2</sup> Толковый словарь русского языка. Под ред. Ушакова онлайн. Электронный ресурс: <https://ushakovdictionary.ru/word.php?wordid=48152>.

<sup>3</sup> Толковый словарь русского языка. Под ред. Ожегова. Электронный ресурс: <https://slovarozhegova.ru/word.php?wordid=20741>.

<sup>4</sup> Толковый словарь русского языка. Под ред. С.А.Кузнецова. Электронный ресурс: <https://gufo.me/dict/kuznetsov>.

<sup>5</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati J.III. L–P . – Тошкент: G‘afur G‘ulom, 2023. – B.706.

ahamiyatga ega, chunki u tadqiqotchilarga matnlarni tahlil qilish va izohlash, shuningdek, ularning mazmuni va tuzilishini tavsiflashda yordam beradi. Badiiy matndagi personaj shaxsi *xarakter, tashqi ko‘rinish, motivlar, o‘zaro munosabatlar, evolyutsiya va ramziylik* kabi jihatlari bilan ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tilshunosligida personaj obrazini yaratishning lingvistik vositalariga oid tadqiqotlar unchalik ko‘p emas, ammo mavzu doiradagi ba’zi qayd va maqolalar mavjud<sup>1</sup>.

Bu bo‘limda yana lisoniy birliklar yordamida personaj obrazini yaratishda *qahramon tashqi ko‘rinishi tavsifi, dialog, monolog, o‘xshatish va metafora, qahramonning ijtimoiy mavqeyi va ma‘lumoti bilan bog‘liq lisoniy birliklar, takrorlarning qo‘llanishidagi o‘ziga xosliklar* haqida fikrlar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘tkir Hoshimov qissalaridagi nutqiy portret va metaforalarning xususiyatlari”** deb nomlangan. Bobning *“Lisoniy shaxs va nutqiy portret yaratishda til vositalaridan foydalanish”* nomli dastlabki bo‘limida *“lisoniy shaxs”* atamasi va uning zamonaviy konsepsiyalari, bugungi tilshunoslikdagi lisoniy shaxs sohasidagi tadqiqotlarning yangi istiqbollari, nutqiy portret tushunchasi va uning asosiy xususiyatlari, qahramonning nutqiy portretini yaratish uchun ishlatiladigan til vositalarining toifalari tahlilga tortilgan. Ma‘lumki, *“lisoniy shaxs”* atamasi ilmiy muomalaga 1930-yilda V.V.Vinogradov kiritgan bo‘lib, olim badiiy lisoniy shaxsning ikki jihatini – muallif shaxsiyati va personaj shaxsiyatini tadqiq qilgan<sup>2</sup>. Aslida bu tushunchaning mohiyati haligacha uzil-kesil belgilanmagani, har xil atamalar bilan yuritilishi bu muammoning murakkabligi va ko‘p darajali tabiati bilan bog‘liq, albatta. Jumladan, I.T.Vepreva *“so‘zlovchi”*, *“nutqiy muloqot subyekti”*, *“kommunikant”*, *“individ”* atamalarini lisoniy shaxs bilan o‘zaro bog‘liq tushunchalar deb hisoblaydi<sup>3</sup>. Tilshunoslikda *“lisoniy shaxs”* deganda insonning nutq faoliyatiga layoqati, ya’ni nutqiy asarlarni yaratish, idrok etish imkonini beruvchi psixofiziologik xususiyatlari majmuyi tushuniladi va bu izohlar Y.N.Karaulovning konsepsiyasi<sup>4</sup>ga tayanadi, buni I.T.Veprevaning *“lisoniy shaxsning zamonaviy konsepsiyalari – bu bir paytlar Karaulov ishlab chiqqan konsepsiyaning biroz o‘zgargan ko‘rinishlaridir”*<sup>5</sup>, – degan fikri ham isbotlaydi.

Lisoniy shaxs lisoniy ong tashuvchisi, u yoki bu madaniyatning tilda mujassam topgan olami bo‘lib, shaxsning lisoniy ongi nutqiy o‘zini tutishi, kommunikativ vaziyat, lisoniy va madaniy maqom, ijtimoiy mansublik,

---

<sup>1</sup> Кучкортоев И. Фразеологическое новаторство А.Каххара: Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – Тошкент, 1965. – 28 с.; Самадов Қ. Некоторые вопросы языкового мастерства Айбека: Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. –Ташкент, 1967. – 24 с.; Абдуллаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы. – Ташкент: Фан, 1979. – 150 с.; Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982. – 148 б.; Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1985. – 154 б.; Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 131 б.; Бадий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993. – 110 б.; Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 78 б.; Нормуродов Р. Шукур Холмирзаевнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси, 2003. – 128 б.

<sup>2</sup> Виноградов В.В. О языке художественной прозы. – Москва, 1930. – С.91.

<sup>3</sup> Вепрева И.Т. Языковая рефлексия в постсоветскую эпоху / И. Т. Вепрева. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2002. – С.52.

<sup>4</sup> Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. Изд. 7-е. – Москва: Издательство ЛКИ, 2010. – С.38.

<sup>5</sup> Вепрева И.Т. Языковая рефлексия в постсоветскую эпоху / И. Т. Вепрева. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2002. – С.52.

dunyoqarash bilan belgilanadi. Bugungi tilshunoslikda lisoniy shaxs sohasidagi tadqiqotlarning yangi istiqbollari – *lingvopersonaliya* yoki *lingvoportretologiya*<sup>1</sup> yoʻnalishi boʻy koʻrsatmoqda. Bizningcha, lisoniy shaxs – insonning til muhiti bilan oʻzaro munosabati jarayonida shakllanib, uning individualligi, madaniy tajribasi va turmush tarzini aks ettiruvchi oʻziga xos nutqiy obrazdir.

Lisoniy shaxs leksik zaxira va nutq uslubi, fonetik va grammatik xususiyatlar, madaniy va ijtimoiy xususiyatlar, shaxsiy xususiyatlarga ega boʻladi. Keyingi yillar oʻzbek tilshunosligida *lisoniy shaxs*, *kommunikativ shaxs*, *nutqiy shaxs*, *shaxs lingvistik modeli* kabi tushunchalarga oid tadqiqotlar yaratilayotgani antroposentrik paradigmaga tayanuvchi psixolingvistika, pragmalolingvistika, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika tarmoqlarida sezilarli oʻsish kuzatilayotganini va inson omiliga lingvistik nuqtayi nazardan eʼtibor kuchayganini bildiradi.

Oʻtkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asari qahramonlarining nutqiy portretini yaratishda leksik (“*diqqatli*”, “*oʻziga ishongan*”, “*hayajonlangan*” kabi), morfologik (“*Men buni hozirning oʻzida bajaraman*” yoki “*Men komissar boʻlaman! Albatta, boʻlaman!*”<sup>2</sup> kabi), fonetik (geminatsiya, assonans, alliteratsiya, hissiy holatda oʻziga xos ohangdan foydalanish kabi) va sintaktik vositalar (“*Soʻtag-ey! Joʻjaxoʻroz-ey! Qoʻyib bersa, meni soʻroq qilmoqchi! Meni-ya!*”<sup>3</sup>) dan juda oʻrinli foydalangan.

Qahramonni lisoniy shaxs sifatida oʻrganish tilshunoslarga xarakterning til bilan qanday munosabatda boʻlishini va til ularning fikrlashi, xatti-harakati hamda boshqa obrazlar bilan munosabatlariga qanday taʼsir qilishini tushunishga, nutqiy portret esa maʼlum til guruhlari va madaniyatlari bilan bogʻliq boʻlishi mumkin boʻlgan lingvistik stereotiplar va tasavvurlarni tahlil qilishga yordam beradi.

“*Lisoniy shaxs va nutqiy portretni shakllantiruvchi lingvistik omillar*” nomli boʻlimda Oʻtkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida lisoniy shaxsni shakllantiruvchi vositalardan, yaʼni matn ekspressivligini yuzaga keltirgan vositalardan, monologik va dialogik matn koʻrinishlaridan, gradatsion tasvir uslubi va obrazlar nutqiy faoliyati – qahramonning feʼl-atvori, tabiati, ichki va tashqi dunyosi, portretini yaratishda qoʻllanilgan lisoniy birliklardan foydalanishidagi oʻziga xosliklari tahlil qilingan. Haqiqatan, nasriy asarning lingvopoetik tahlili asar muallifining lisoniy birliklardan foydalanishdagi mahorati, oʻziga xos uslubi – lisoniy shaxs va nutqiy portret yaratishdagi individualligi, oʻzbek tilining taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi, tilning ekspressiv-emotsionallik ifodalovchi maxsus fonetik-fonologik, leksik-semantik birliklar (antonimlar, sinonimlar, omonimlar, paronimlar, koʻp maʼnoli soʻzlar, arxaizm va istorizmlar, dialektizmlar, varvarizm va vulgarizmlar, agnonimlar, iboralar, maqollar, leksik okkazonalizmlar), morfologik birliklar (soʻz shakllari, maʼlum grammatik maʼno va vazifaga ega shakllar, okkazonal qoʻshimchalar va yasalmalar) hamda sintaktik oʻzgachaliklar (sintaktik parallelizmlar, emotsional va ritorik soʻroq gaplar,

<sup>1</sup> Ольшанский И.Г. Язык и языковая личность в условиях современного социального контекста. // РГСУ. Ученые записки. – 2004. – № 1. – С.80.

<sup>2</sup> Oʻtkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – B.34.

<sup>3</sup> Oʻtkir Hoshimov. Koʻrsatilgan asar. – B.24.

inversiya, ellipsis, sukut, gradatsiya, sintaktik qarshilantirishlar, o‘xshatish va farqlashlar)ni ochib berishga xizmat qilishi lozim.

Lingvopoetik tahlil muayyan adibning “nutqiy obrazlar” – metafora, simvol, jonlantirish, epitet, apastrofa, metonimiya, perifraza, sinekdoxa, allegoriya, ironiya, sarkazm, giperbola, meyozis, litota kabi troplar hamda anafora, epifora, takrorlar, antiteza, gradatsiya, ellipsis, alliteratsiya, assonans, ritorik so‘roq, oksyumoron kabi uslubiy figuralarlarning matn shakllanishidagi xizmatlaridan ustalik bilan foydalanish mahoratini aniq tamoyillar va tematik yoki kompleks tahlil qilishga asoslanadi. Badiiy asarda lisoniy shaxsni yuzaga keltiruvchi asosiy omil *inson nutqiy faoliyati* sanaladi.

O‘tkir Hoshimov Ona obrazini tasvirlashda uning fazilatlari va xususiyatlarini yetkazish uchun *o‘xshatish* va *metaforalardan*; umuminsoniy g‘oyalar va qadriyatlarni o‘zida mujassamlagan obrazni yaratish uchun *ramziylik* va *allegoriyalardan* unumli va o‘rinli foydalangan. Qissada muallif monologik nutq vositasida tasviriy matnni gradatsion tarzda yanada quyuqlashtirib boradi. Ya’ni nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma’nosini kuchaytirib boradi. Yana bir o‘rinda har gapda ifodalangan hodisa ayni vaqt birligida ketma-ket sodir bo‘lgan: *beshtik g‘ichirlaydi > ukam yig‘lay boshlaydi > oyim darrov uyg‘onadi > beshtikni ohista tebratadi > alla aytadi*. Yana bir jihat *alla* leksemasi *beshtik – ona – go‘dak* leksemalari qatorida uyadoshlik kasb etadi. Obraz yaratishdagi monologik nutqning o‘ziga xos jihatlardan yana biri muallif unda badiiy matnning ekpressivligini ta’minlovchi vositalar: ritorik so‘roq gaplar, his-hayajon gaplar, emotsional so‘zlar, turli kiritmalar hamda o‘xshatishlardan erkin foydalana olganidadir. Quyida keltirilgan parchada muallif dastlab *peyzaj tasviridan* foydalanib, o‘xshatishning o‘ziga xos, original ko‘rinishini namoyon qiladi: *onalarning joni > eng yorqin yulduzlarga > quyoshga qiyoslanishi* kabi. Shuning bilan birgalikda, emotsional so‘z bo‘yoqdor “*ehtimol*”ning takrori matnning ekpressiv ta’siri oshishiga ham xizmat qiladi. Ammo ikkinchi jumlada qiyoslagan *yorqin yulduz* jumlasini uchinchi jumlada *so‘ngan yulduzga* almashinadi (*kontrast* yuzaga keladi): “*Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko‘z oldimga keladi. Bilmadim, ehtimol, o‘sha oq, oydin kechalarda onam ilk bor qo‘limga qalam tutqazgandir. Yulduz to‘la osmonga tikilaman. Ehtimol, osmondagi eng yorqin yulduzlar onalarning jonidir. Ehtimol, onalarning so‘ngan yulduzlari birlashib quyoshga aylangandir. Oftobni ona deyishlari, ehtimol, shundandir*”<sup>1</sup>. Adib yorqin va esda qolarli personajlar yaratishda xalq madaniyati va turmush tarzini, odamlarning kayfiyati, hissiyotlari va tuyg‘ularini yetkazish imkonini beruvchi til birliklaridan o‘rinli foydalanadi. Qissada bunga misol bo‘luvchi frazeologik birliklar, gap qurilishlari, metafora, epitetlarni ko‘plab uchratish mumkin.

Bobning “*Obraz yaratuvchi metaforalarning leksik-semantik tizimidagi o‘rni*” nomli bo‘limida metaforaning tilning leksik-semantik tizimidagi o‘rni, ko‘chma ma’nolarning paydo bo‘lish mexanizmlari, olamning lisoniy manzarasini aks ettirishdagi ko‘chimga asoslangan birliklar, shuningdek, O‘tkir Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” qissasida obraz yaratishda qo‘llangan metaforalarning

---

<sup>1</sup> Ўткир Ҳошимов. Дунёнинг ишлари. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018. – Б.8.

vazifalari tahlil qilingan. Ma'lumki, badiiy nutqda trop simon nominatsiyalarning leksik-semantik, semasiologik va lingvomadaniy tahlili obrazli birliklar tomonidan gavdalanirilgan obrazli tushunchalar – metafora, taqqoslash, majoziy iboralar yordamida muallifning olamni individual idrok etishining metaforik modelini qurish imkonini beradi. Aytish mumkinki, so'z ma'nosining sifatiiy ko'chishiga asoslangan trop sanaluvchi metaforalar badiiy asarda yorqin va esda qolarli obrazlar yaratishga yordam beradi.

“Hozirda metafora termini bilan faqat o'xshashlik asosidagi ko'chim yuritilishi natijasida ma'no torayishi ifodalanadi. Metaforalarda, ayniqsa, badiiy, ko'tarinki ruh sezilib turadi, ular badiiy matnda “obrazlilik, emotsiya berish<sup>1</sup>” vazifasini bajaradi. Aslida metaforaga qiziqish antik davrlarga borib taqaladi, o'sha davr faylasuflari bu ko'chimni, asosan, nutqning bezagi – badiiylik vositasi sifatida talqin qilishgan. XX asr oxiriga kelib, kognitiv tilshunoslikning shakllanishi bu qarashlarni sezilarli darajada o'zgartirdi. Endilikda tilshunoslarning aksariyati “metafora tom ma'noda fundamental bilish faoliyatining namoyon bo'lishi<sup>2</sup>”, “metafora tilning fundamental xossasi<sup>3</sup>” ekanligini qayd qilishadi. Matn lingvopoetikasida xususiy-muallif metaforalar ahamiyatli, chunki ular adibning estetik maqsadini ham qo'shib nomlaydi va uslubiiy bo'yoqdorlikka hamda obrazli tasvirga ega bo'ladi.

O'tkir Hoshimov “Bahor qaytmaydi” qissasida bu tropdan juda unumli foydalangan. Adib hatto qissaga nom berishda ham metafora qo'llaydi. O'quvchi o'xshatishning turli ko'rinishlari, metaforik tafakkur tarziga xos hikoya qilish natijasida asar dunyosiga olib kiriladi: “*Bo'ston qishlog'iga og'ir-vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi*”. Bu jumlada insonga xos “*og'ir-vazmin qadamlar*” kuzning sekin-asta, sezdirmay kirib kelayotgan paytini tasavvur qilish imkonini beradi. Keyingi jumladagi tabiat tasvirida “bizning filologiya ilmimizda unchalik muntazam o'rganilmagan<sup>4</sup>” sinestetik metaforalardan (*jimgina mudragan tonglar; junjikkan oqshomlar; iliq, tansiq nurlar*) juda o'rinli foydalangan. Bunday topilmalardan foydalanish tasvirni yanada kuchaytiradi, muallif ekspozitsiya tasviri yordamida o'quvchini asar voqealari yuz beradigan makonga olib kirish uchun bor mahoratini ishga soladi: “*Tumanlik qo'ynida jimgina mudragan tonglar, ilk sovuq og'ushida junjikkan seryulduz oqshomlar boshlandi. Havoga yelpig'ichday qat-qat bulutlar chiqdi. Quyoshning iliq, tansiq nurlari odamlarga xush yoqadigan bo'lib qoldi*”<sup>5</sup>.

Qissada metaforalar matnni chuqurroq va emotsional idrok etishga hissa qo'shib, assotsiatsiyalar hosil qilishda, o'quvchilar tushunchasini kengaytirishda va matnni esda qolarli qilishda muhim o'rin tutgan hamda asar atmosferasini yaratish (*sumbula tug'di*), ramziylikni kuchaytirish (*g'amgingina vijirlab qo'ydi, munchoq ko'zlar gapirishi*), teranlik va murakkablikni ifodalash (A.Oripov she'ridagi

<sup>1</sup> Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.19.

<sup>2</sup> Чернышова Л.А. Отраслевая терминология в свете антропоцентрической парадигмы. – Москва: МГОУ, 2010. – С.158.

<sup>3</sup> Степанов Ю.С. В трехмерном пространстве языка. – Москва: Наука, 1985. – С.229.

<sup>4</sup> Маҳмудов Н. Метафора ва унинг лингвопоэтик имкониятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2023. – № 4. – Б.6.

<sup>5</sup> O'tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.3

“Ketmoq” soʻzi zamirida xudbinlik, takabburlik illatidan haqiqat manziliga intilishga ishora berish) vazifalarini bajargan.

Oʻtkir Hoshimov boshqalardan farqli oʻlaroq, oʻz asarlari bilan nasrga lirik yoʻnalish va musiqiy kolorit olib kira oldi. “Bahor qaytmaydi” qissasida lisoniy birliklar, ayniqsa, sinestetik koʻrinishdagi xususiy-mualliflik metaforalar nafaqat qahramonlarning jonli va esda qolarli obrazini, balki qissaning umumiy atmosferasini yaratishga ham xizmat qilgan. Oʻ.Hoshimov soʻzdan xarakterlarni shakllantirish, sujetni ochish va oʻz gʻoyalarini ifodalashda mohirona foydalana olganki, natijada asar yorqin va betakror koʻrinishga kelgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Oʻtkir Hoshimov romanlarida milliy xarakterlar obrazini yaratishning lisoniy vositalari”** deb nomlangan. Bobning *“Badiiy matn emotsionalligini taʼminlovchi ekspressiv vositalar”* nomli birinchi boʻlimida ekspressivlik kategoriyasi, uning emotsionallik bilan aloqasi, ekspressivlikning badiiy matnlarda obraz yaratish va his-tuygʻular, kechinmalarni yetkazishdagi ahamiyati, hissiy-estetik teranlik yaratuvchi birliklar, obrazli vositalar va ifodali vositalar kabi uslubiy koʻrinishlar ilmiy manbalar va misollar bilan ochib berilgan. Jumladan, lotincha *“expressio”* soʻzidan olingan *“ifoda”* tushunchasi koʻpincha fikr va his-tuygʻularni alohida ifodalash usulidir. Tilshunoslikka oid lugʻatlarda ekspressivlik til birligining nutq soʻzlovchi (adresat)ning muloqot jarayonida nutq mazmuniga subyektiv munosabatini ifodalash qobiliyatini taʼminlovchi semantik va stilistik xususiyatlar yigʻindisi sifatida taʼriflanadi. Emotsionallik va ekspressivlik oʻzaro bogʻliq boʻlib, ularning asosiy farqi shundaki, emotsionallik tildan tashqari obyektlarni baholashga qaratilgan boʻlsa, ekspressivlik fikrning ekspressiv kuchi nuqtayi nazaridan tinglovchiga maqsadli taʼsir koʻrsatishga qaratadi. Tilning emotsional vositalari koʻpincha ekspressivlikni bildirsa ham, ekspressiv vositalar har doim ham hissiy boʻlishi shart emas. Bu fikrlarni V.K.Xarchenko, I.V.Arnold, E.P.Shubin, V.I.Shaxovskiyning ilmiy-nazariy fikrlari<sup>1</sup> ham dalillaydi.

Nutqning emotsionalligi koʻpincha gaplar, his-hayajonli soʻzlar, intonatsiya va maxsus sintaktik tuzilmalar (takrorlash, ellips, inversiya va boshqalar) orqali berilsa, ekspressivlik koʻpincha tinglovchiga taʼsirni kuchaytirish, uni hayratda qoldirish yoki ishontirishga qaratilgan obrazli iboralar bilan bogʻliq. Nutqdagi ekspressivlik bayonni yanada jonli, hissiy jihatdan boy va taʼsirli qiladigan turli vositalar orqali namoyon boʻladi. U tilning turli xil fonetik, leksik, morfologik va sintaktik birliklarini oʻz ichiga oladi. Bunga ijodkorlarning yangi shakllardan foydalanishi, soʻzlashuv yoki ijtimoiy chegaralangan iboralarni qoʻllashi, parallel qurilmalar, takror, inversiya, alliteratsiya va boshqa shu kabi uslubiy vositalarni ishlatishi kiradi. Badiiy asar tilini tahlil qilish uslubiy vositalarning ikki turiga: *obrazli vositalar* va *ifodali vositalarga* bogʻliq boʻladi.

---

<sup>1</sup> Харченко В.К. Разграничение оценочности, образности, экспрессивности и эмоциональности в семантике слова // Русский язык в школе. – 1976. – №3. – С.70-75.; Арнольд И.В. Интерпретация художественного текста: типы выдвигания и проблемы экспрессивности // Экспрессивные средства английского языка. – Л., 1975. – С.11-20.; Шубин Э.П. Лингвистические основы и общие принципы методики, Ч.1. – М., 1993. – С.34-35.; Шаховский В.И. Эмоции в коммуникативной лингвистике // Горизонты современной лингвистики: Традиции и новаторство. – Москва: Языки славянских культур, 2009. – С.677.

Bu bo‘limda yana O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanidagi misollar asosida so‘zlarning ma’nosini o‘zgartiradigan, nutqni yanada jonli va tushunarli qiladigan maxsus uslubiy vositalar – troplarning *metafora, giperbola, litota, metonimiya, sinekdoxa, allegoriya, taqqoslash, epitet, nutq shakllari, alliteratsiya va romb* kabi ko‘rinishlari ham izohlangan. Xullas, ekpressiv leksika personaj ruhiy portretini, uning ijobiy yoki salbiy obrazini yaratishda ishtirok etadi hamda asardagi boshqa obrazlar bilan assotsiativ aloqalarni yo‘lga qo‘yishda qatnashadi.

Bobning keyingi “*Nur borki, soya bor*” romanida fonetik va fonografik vositalarning obraz yaratishdagi ahamiyati” bo‘limida alliteratsiya, assonans, geminatsiya kabi ko‘plab fonetik usullarning badiiy matn mazmunini boyitish, ta’sirchanligini oshirish, asar ohangdorligi, musiqiylikini oshirish, personajlarning tashqi va ichki holatini ochib berishdagi ahamiyati, bu vositalar personajning qanday ruhiy holatlarini yoritishda qo‘llanganligi tahlilga tortilgan.

Ma’lumki, tilshunoslikning ushbu masalalarga bag‘ishlangan fonostilistika, fonografik stilistika bo‘limlariga oid qarashlar A.G‘ulomov tomonidan ilgari surilgan. “Tilning barcha yaruslarida bo‘lgani singari fonetik vositalarda ham stilistik imkoniyatlar mavjud, – deb ta’kidlaydi tilshunos olim S.Karimov, – nutq jarayonida ishtirok etadigan fonostilistik resurslar matn kompleksidagi leksik-frazeologik va grammatik vositalar anglatadigan semantik-stilistik vositalar ko‘lamini qo‘shimcha ottenkalar bilan kengaytirishga, aynan muallif ko‘zda tutgan ifodaning shakllanishiga xizmat qiladi<sup>1</sup>”. Fonografik stilistika fonetik vositalar – nutq tovushlari, urg‘u, ohang, ton, tovush tembri va grafik vositalar – harflar, tinish belgilari, ularning rang-barang yozilishining o‘ziga xos uslubiy imkoniyatlarini yaxlit holda o‘rganuvchi sohadir. Grafik stilistika oldida ikki asosiy vazifa turadi: a) og‘zaki nutqning fonetik ta’sirchan vositalarining yozma nutqda aks ettirilishi; b) yozma nutqdagi faqat unga xos bo‘lgan tasviriy-hissiy (ta’kidlash, bo‘rttirish, hodisa ahamiyatiga diqqatni jalb qilish va h.k.) vositalarini o‘rganish.

O‘tkir Hoshimovning “Nur borki, soya bor” romanida, nisbatan kam o‘rinlarda bo‘lsa ham, unli tovushlarining cho‘zilishi, undosh tovushlarning ikkilanishi kabi holatlarning qo‘llanishi asarga zalvorli bir ruh bag‘ishlaydi. Zero, obrazni jonli muhitga kirgizish, uning yig‘lashi, kulishi, quvonchi, achinishini yoxud uning tashqi qiyofasini o‘ta bo‘rttirib tasvirlashda *unlilarni cho‘zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish* kabi fonetik usullar xizmat qiladi. Masalan, asarning ayrim o‘rinlarida *assonans* hodisasi orqali personajning kinoyali fikrining tasdig‘ini ifodalash, hayratlanish, jahldorlik, xushkayfiyat, g‘azab, asabiylashgan ruhiy holatlari yoritib berilgan: “**O‘h-o‘!** Dimog‘ masalasi juda baland-ku!”// – *Voy o‘lsi-i-in!* Hali nima devdim? Esiz servizlarim! // – **O‘h-o‘,** tiling burro-ku juda! // – *Dadang o‘lgan!* – dedi oyisi g‘azabdan ko‘zlari qisilib. – **O‘li-i-b** qolgan. *Bildingmi?*<sup>2</sup> . O‘tkir Hoshimovning ushbu asarida alliteratsiyaning sof (to‘liq)

<sup>1</sup> Каримов С. Ўзбек тилининг тарихий фонетик стилистикаси. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2016. – Б.12.

<sup>2</sup> O‘tkir Hoshimov. Nur borki, soya bor. – Toshkent: Nurli dunyo, 2024. – B.153.

shakli kam uchrasa ham, to‘liqsiz shaklini qo‘llash orqali poetik ohangdorlik bilan bir qatorda tasvirning ta’sir kuchini oshirishga, musiqiylikini ta’minlashga erishadi va asarning yengil o‘qilishini ta’minlaydi: “**Sh**” tovushi takrori: “*Ko‘rinishidan u ellik yoshlardan oshgan, ustarada qirtishlangan boshiga moshrang baxmal do‘ppi kiyib olgan, yuzlari shishinqiragan, ko‘zlarining osti salqib turar edi*”. // “**T, R**” tovushi takrori: “...*Qilich Valiyevning bir tuki ham o‘zgarmadi, stol qirrasiga tirsagini tiragancha indamay o‘tiraverdi*”. // “**Q**” tovushi takrori: “*Uning ozg‘in chehrasi, qimtilgan yupqa lablarida allaqanday qat‘iyat bor...*”<sup>2</sup>.

Mazkur bobning “*Tushda kechgan umrlar*” romanida obraz yaratuvchi grammatik vositalar” nomli bo‘limida grammatik vositalar ham personaj nutqining tarkibi, uslubi va xarakteriga ta’sir etishi, ular ham badiiy asarda obrazini yaratishda muhim rol o‘ynashi, grammatik birliklar estetik ta’sir kuchi bo‘yicha leksik birliklardan pastroq bo‘lishiga qaramay, ular ham semantik yuklama tashishga – estetik vazifani bajarishga qodir ekanligi hamda grammatik birliklarning obrazlar tasviriga ta’sir qilishining bir necha usullari misollar yordamida dalillangan.

O‘zbek tilidagi grammatik vositalarning juda katta qismi uslubiy bo‘yoqqa va tasviriylikka, sinonimiya va variantlarga ega. Romanning bosh qahramonlari obrazlarini yaratishda grammatik birliklar muhim o‘rin tutadi, chunki ular hikoya qilish uslubi, personajlar tabiati va asarning umumiy atmosferasini shakllantirishga yordam beradi. Grammatik birliklarning qahramonlar tasviriga ta’sir qilishida jumlaning sintakik tuzilishi, uslubiy qoliplardan foydalanish, dialoglar, fe‘l zamonlari, hikoya qilish nuqtayi nazari kabi usullar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘tkir Hoshimovning ushbu romanida *-lar* ko‘plik shakli va *-ing* egalik qo‘shimchalarining ayrim o‘zbek shevalariga xos ko‘rinishini topish mumkin: – *To‘yinglar qachon bo‘lgan? – Hovlinglar kattamidi? – Rahmat. Ovqatinglar shirin bo‘pti.* Chiqish kelishigi qo‘shimchasi qaratqich kelishigi ko‘rsatkichi bilan sinonim bo‘lgan holatlar ham talaygina: *Bultur qaysidir sovxozda talabalardan biri sirg‘anib, quduqqa tushib ketibdi... Qandoq olmoshi mazmunan qanday, qanaqa olmoshlarining fonetik-dialektal varianti sanaladi va badiiy uslubda faolligi bilan ajralib turadi: Bir zamonlar Qatortol qandoq joylar edi! // Qandoq yotganiykin Rustam akam?*<sup>3</sup>.

O‘tkir Hoshimov ushbu romanining ayrim o‘rinlarida *e* orqali “qoyil qolish” ma’nosi, buyruq ohangining ustunligi, “nafrat” ottenkasi, “erkalash” ottenkasi, “bekor qilibsani, demoqchi bo‘lganlik” mazmuni ifodalaydi: – *Otangga rahmat-e, shovvoz!* “qoyil qolish” ma’nosini ifodalaydi. // – *O‘t-e, eshonvachcha! – dedi Husanning qo‘lini yoqasidan olib tashlashga urinib buyruq ohangiga “nafrat” ottenkasi ham qo‘shiladi. // – Jinnivoy-ey! Senga jevachka va‘da qiluvdim-ku!* deyilgan sintaktik qurilmada “bekor qilibsani, demoqchi bo‘lganlik” ma’nosi bo‘ttiriladi. Demak, romanda qo‘llanilgan morfologik-sintaktik birliklarning uslubiy imkoniyatlarini ifodalashning turli usullari, xususan, egalik

<sup>1</sup> O‘tkir Hoshimov. Ko‘rsatilgan asar. – B.60.

<sup>2</sup> O‘tkir Hoshimov. Ko‘rsatilgan asar. – B.57.

<sup>3</sup> O‘tkir Hoshimov. *Tushda kechgan umrlar*. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – B.185.

qo‘shimchalarining ishlatilishi hamda undov, modal, sifat va ravishlarning matnga mos turli tanlanmalari badiiy matn estetik ta‘sirini o‘rganishda muhim hisoblanadi.

Bobning “*Ikki eshik orasi*” romanida lisoniy shaxs tasvirining o‘ziga xos xususiyatlari” deb nomlangan to‘rtinchi bo‘limida lisoniy shaxs tasvirida ekspressiv vositalarning o‘rni, bu lingvistik va stilistik vositalarning tasnifi “Ikki eshik orasi” romani materiallari asosida izohlangan. Darhaqiqat, konnotatsiya – til birliklari semantikasiga uzual yoki okkazional ravishda kiradigan, nutq subyektining borliqni muayyan jumlada ifodalashida uning ayni shu borliqqa bo‘lgan hissiy-baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko‘ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmuniy mohiyat sanaladi<sup>1</sup>.

O‘tkir Hoshimov asarlari orasida “Ikki eshik orasi” romani badiiy matn emotsionalligini ta‘minlash yo‘lida ishlatilgan ekspressiv uslubiy figura va troplar seroblighi bilan alohida ajralib turadi. Masalan: “*Bu gal elakning tapillashi ham susayib qoldi. Endi u sekinroq, og‘irroq chayqala boshladi. Xuddi “jon bo-o-lam, jo-nim bo-o-lam” deyayotganday*”. Ammam ikki qo‘llab elakni ko‘tarib un yopishgan bilagi bilan ko‘zini artdi”<sup>2</sup> jumlasidagi assonans fonetik usuli “Qora amma” nutqiga intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsional-ekspressivlik bag‘ishlamoqda. Modomiki, “Badiiy nutqda intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsional-ekspressivlik bag‘ishlash maqsadida qo‘llaniladigan fonetik usullardan biri assonans” ekan<sup>3</sup>, aynan bir xil yoki yaqin unilarning takrorlanib kelishidan hosil bo‘layotgan munгли ohangdoshlik kichkintoy Muzaffar tomonidan elakning tapillashiga mengzalib, unlini cho‘zish fonetik usuli orqali (*jon bo-o-lam, jo-o-nim bo-o-lam*) ayriliq yetkazgan g‘am-anduh ma‘nosi kuchaytirilmoqda.

Badiiy matnda lisoniy shaxs obrazini yaratishda ekspressiv birliklarning vazifalariga quyidagilar kiradi: a) qahramonlar obrazining psixologik portretini yaratish; b) matnda tasvirlangan dunyoni emotsional talqin qilish va unga baho berish; d) obrazning ichki hissiy dunyosini ochish; e) o‘quvchiga ta‘sir qilish.

“Ikki eshik orasi” romanida adib parallelizmdan samarali foydalanadi: “*Osmonda to‘lin oy xomush nur sochadi. Avtobus bilan yonma-yon uchib boradi. Paxtazorlar, yo‘l chetidagi daraxtlar lip-lip o‘tadi. Hammasi oymomaning yumshoq belanchagida orom olib tebranadi*”<sup>4</sup>. Qahramonlar ichki dunyosida kechayotgan izdihomlarni anglatishga qaratilgan, ba‘zan ularning ruhiyatini ochishga yo‘naltirilgan emotsional gaplar ko‘plab uchraydi: “*Ehtimol kecha onam ham shu oymomaga termilib, meni o‘ylab yotgandir. Ko‘rgisi kelgandir. “O‘g‘lim qani?” deb so‘ragandir. Anaviga-ku bir nima deyishga haddi sig‘maydi. Nasibaga yalingandir: “Akanгни chaqirtir, ko‘rib qolay”, degandir...*”<sup>5</sup>. Monologik va dialogik nutqda ko‘p uchraydigan, qahramonning taajjublanishini, hayratlanishini, quvonchini, qayg‘usini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, g‘azab va nafratini ifodalashda  ritorik so‘roq gaplarga murojaat qiladi: – *Kimsanni sen kutsang, men kutmayapmanmi?! O‘z bolamning ko‘ziga o‘zim cho‘p solgandan*

<sup>1</sup> Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – Москва, 1986. – С.5.

<sup>2</sup> O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Nurli dunyo, 2023. – B.31.

<sup>3</sup> Ўўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик тахлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.46.

<sup>4</sup> O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Nurli dunyo, 2023. – B.13.

<sup>5</sup> O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Nurli dunyo, 2023. – B.36.

*ko'ra o'lganim yaxshimasmi! Nima qilay, jon qizim, ilojim qancha!...<sup>1</sup>.* Qahramonlar nutqini jonli nutqqa yaqinlashtirish, ular tilini individuallashtirish uchun inversiyadan foydalangan: – *Mana, ma'lim, o'lmagan qul, sen je-men je kunlargayam yetdik. Belida belbog'i bor kelaveradi.* Romanda bulardan tashqari, ellipsisdan, gradatsiya usulidan, antitezadan, oksyumorondan, farqlash, o'xshatish usullaridan foydalanilgan o'rinlar ko'plab uchraydi.

Xullas, parallelizm, emotsional gaplar, ritorik so'roq gaplar, inversiya, ellipsis, gradatsiya, antiteza, o'xshatish va boshqa ekspressiv vositalarning har biri asarning hissiy muhitini yaratishda o'ziga xos o'ringa ega. Bu vositalar yordamida muallif o'z g'oya va fikrlarini hayotga tatbiq etishi, o'quvchida kuchli his-tuyg'ularni uyg'otishi, uni so'z yordamida yaratilgan dunyoga jalb qilishi mumkin. Badiiy matnda ekspressiv vositalardan foydalanish qobiliyati har bir yozuvchi – ijodkor uchun betakror mahoratdir.

## XULOSA

1. Personaj obrazining lisoniy xarakteristikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, personajning lisoniy qurilishi murakkab jarayon bo'lib, ko'plab lisoniy birliklar va ijodiy usullarni o'z ichiga oladi. Adabiy qahramonlarni tavsiflashda ishlatiladigan lisoniy birliklar o'ziga xos qonuniyat va konvensiyalarga bo'ysunadi. Qahramon qiyofasining so'zdagi ifodasi murakkab qurilma bo'lib, sintaktik tarkib, so'zlarning leksik qatori va uslubiy figuralar badiiy ifodaviylikning yuksak darajasiga erishish uchun faol tarzda yagona maxrajda mujassamlashadi.

2. Til sistemasida personaj leksemasining kelib chiqishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, uning yaratilishi va evolyutsiyasi nafaqat tilning vazifaviy jihatlari bilan, balki mazkur leksemaning badiiy asar matnida tutgan badiiy qimmatini bilan ham shartlanadi. Masalaning shu tarzda yoritilishi adabiy til semantikasi va leksikografiyasini o'rganishda yangi sahifalarning ochilishiga xizmat qiladi.

3. O'tkir Hoshimov asarlaridagi semantik birliklar Ona obrazining lisoniy ifodasi fonida ko'zdan kechirilganda, muallif tomonidan turli tasviriy-ifodaviy vositalar ko'magida yaratilgan bu adabiy qahramon qolgan personajlarni yagona ipda tutib turuvchi markaziy obraz sifatida qad ko'targan. “Dunyoning ishlari” qissasida lisoniy birliklar milliy xarakterlar obrazini yaratishda, ayniqsa, ona obrazining to'laqonli badiiy ifodasiga erishishda o'z vazifalarini to'la namoyon etadi.

4. “Bahor qaytmaydi” qissasida lisoniy birliklar nafaqat qahramonlarning jonli va esda qolarli obrazini, balki qissaning umumiy atmosferasini yaratishga ham xizmat qilgan. Alimardon obrazining maksimal ko'rinishini ta'minlashda metaforaning tarkibiy va leksik elementlaridan samarali foydalanilganligi yozuvchining adabiy personajlarni shakllantirishdagi o'ziga xos usulini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. O'tkir Hoshimov so'zdan xarakter shakllantirish, sujetni ochish va o'z g'oyalarini ifodalashda mohirona foydalana olganki, natijada asar yorqin va betakror ko'rinishga kelgan.

---

<sup>1</sup> O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Nurli dunyo, 2023. – B.56.

5. Lisoniy shaxs insonning til muhiti bilan o‘zaro munosabati jarayonida shakllanadi va shaxsning individualligi, madaniy tajribasi hamda turmush tarzini aks ettiruvchi o‘ziga xos nutqiy obrazdir. Lisoniy shaxs leksik zaxira va nutq uslubi, fonetik, grammatik, madaniy va ijtimoiy, shaxsiy xususiyatlarga ega bo‘ladi. Adabiy personaj esa inson analogi sifatida uning so‘zda ifodalangan modeli hisoblanadi.

6. Nutqiy portret tushunchasi tilning badiiy adabiyotda ishlatilishini tahlil qilish, til va personajlar shaxsiyati o‘rtasidagi munosabatni aniqlash imkonini beradi. Badiiy asarda personajga tegishli nutq uning lisoniy shaxsi xarakteristikasini qayta tiklash orqali, pirovardida, shu qahramon ma’naviy-ruhiy olamiga asoslangan ko‘p qatlamli va murakkab badiiy obraz yaratishga xizmat qiladi.

7. Zamonaviy nasrda badiiy dialog personaj shaxsining gender, yoshga doir, milliy, temporal tavsifi, ijtimoiy mavqeyi, tashqi ko‘rinishi, emotsional holati va boshqa personajlar bilan o‘zaro aloqasi singari jihatlarni qamragan holda uning to‘laqonli tavsifini ta’minlaydi. Bu ma’lumotlar tilning leksik, grammatik va fonografik birliklari orqali turfa xil lisoniy vositalar yordamida yetkaziladi.

8. Adib asarida implitsit birliklar personaj haqida kengroq ma’lumot yetkazish uchun ishlatiladi. Bularga metafora va o‘xshatish, dialektizmlar, funksional bo‘yoqdor leksika, shuningdek, allyuziyalar, presedent matnlar, toponimlar, sanalar, tarixiy voqealar va taniqli shaxslar kabi kitobxondan matn talqini uchun qo‘shimcha bilim talab etadigan vositalar kiradi.

9. O‘tkir Hoshimov adabiy personajlarni yaratishda foydalanadigan asosiy elementlardan biri – ularning nutqlari. Qahramonlarning o‘zini qanday namoyon etishi, leksikasi, nutqiy o‘zini tutishi milliy o‘ziga xoslikni bo‘rttirishga xizmat qilgan. Yozuvchi ko‘plab emotsional so‘z va iboralar yordamida qissada o‘ziga xos o‘zbekona muhit yaratib, oddiy odamlar turmush tarzini tasvirlash orqali umumlashma hayotiy xulosalar chiqaradi.

10. “Ikki eshik orasi” romanida ekspressiv leksika personaj ruhiy portretini, uning ijobiy yoki salbiy obrazini yaratishda ishtirok etadi hamda asardagi boshqa obrazlar bilan assotsiativ aloqalarni yo‘lga qo‘yishda qatnashadi. Umuman olganda, ekspressiv leksika badiiy matnda bundan boshqa yana ko‘plab zaruriy vazifalarni bajaradi. Matnning emotsional mazmuni (qahramonlar ruhiyati) va hissiy bo‘yoqdorligini ta’minlash eng asosiy vazifasi hisoblanadi.

11. “Tushda kechgan umrlar” romanida lisoniy shaxs obrazini yaratishda qo‘llanilgan turfa xil grammatik shakllar, xususan, egalik qo‘shimchalarining ishlatilish usullari, sifat va ravishlar rang-barangligi badiiy matn estetik ta’sirini oshirishga xizmat qilgan. Ular leksik vositalar bilan o‘zaro aloqadorlikda roman qahramonlarining xarakterini ochish, asarning o‘ziga xos muhitini yaratish va uning g‘oyaviy-badiiy mazmunini amalga oshirish imkonini tug‘dirgan.

12. O‘tkir Hoshimov qo‘llagan ekspressiv vositalar dunyoni yorqinroq tushunish va his qilishimizga yordam beradi, adabiyotni yanada mazmunli va ta’sirli san’at turiga aylantiradi. Binobarin, ekspressiv vositalar muallif va o‘quvchi o‘rtasida hissiy aloqani shakllantirishda, ularning adabiy tajribasini boyitishda, izlanish va ijod uchun yangi ufqlarni ochishda muhim rol o‘ynaydi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УРГЕНЧСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**УРГЕНЧЕСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**УЛЛИЕВА САНОБАР ХАЙДАРОВНА**

**ФУНКЦИИ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ В СОЗДАНИИ  
ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА  
(на примере произведений Уткира Хашимова)**

10.00.01 – Узбекский язык

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Ургенч – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2022.4.PhD/Fil2346

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.urgu.uz](http://www.urgu.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziyouet» ([www.ziyouet.uz](http://www.ziyouet.uz)).


Научный руководитель:	Дусинов Зариббой доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Гайляева Огилбай Курбанмурадова доктор филологических наук, профессор Атажонова Аворгул Жуманиковна кандидат филологических наук, доцент
Ведущая организация:	Самаркандский государственный университет


Защита диссертации состоится 08 апрель 2025 г. в 14 : 00 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil55.02 по присуждению ученой степени при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхан Беруни. (Адрес: 220100, Ургенч, ул. Х. Алимджана, дом 14). Тел: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00; e-mail: [www.fil-ik.urgu.uz](http://www.fil-ik.urgu.uz)


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета (зарегистрирована за № Д-793). (Адрес: 220100, Ургенч, ул. Х. Алимджана, дом 14, Тел: (99862) 224-67-00). Email: [imur.urgu@uznet.uz](mailto:imur.urgu@uznet.uz)

Автореферат диссертации разослан 19 апрель 2025 г.  
(Протокол реестра рассылки № 51 от 19 апрель 2025 г.)



  
Д.К. Гайилов,  
председатель научного совета по присуждению ученой степени, доктор филол. наук (DSc), профессор

  
С.С. Атажонов,  
член секретариата научного совета по присуждению ученой степени, доктор философии по филол. наукам (PhD), доцент

  
А.Д. Урабоев,  
председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученой степени, доктор филол. наук (DSc), профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Современный период развития мирового языкознания стал периодом расцвета антропоцентрической лингвистики. В связи с фундаментальными изменениями, происходящими в данной области, лингвистический анализ художественного текста ведущими учеными мира, а также стилистические, лингвопоэтические и психолингвистические аспекты текста находятся в центре внимания исследователей. В частности, сегодня все более актуальными становятся такие вопросы, как лингвистические основы создания образа (языковой картины), интерпретация художественного образа как языковой личности, возможности использования лингвистических средств в создании языковой личности и его речевого портрета, а также языковые факторы, формирующие их, и средства, используемые при создании национального характера. Изучение лингвистического статуса языковой личности и речевого портрета, играющих важную роль в лингвистическом анализе художественного текста на конкретном языке, на основе современных подходов, в частности, исследование языковых единиц, формирующих человека и его речь в художественном тексте, служит теоретической основой оценки мастерства создателя.

В мировой лингвистике проблема характеристики языка художественных произведений и лингвопоэтических функций, связанных с языковыми единицами, начала рассматриваться со второй половины прошлого столетия. В частности, преимущество любого произведения искусства определяется эффективным и уместным использованием фонетических, лексических, фразеологических, грамматических образных единиц, средств художественной выразительности, используемых в речи языковой личности. Выбор слов, структуры предложений, лексико-семантических, ритмико-интонационных единиц в тексте также обусловлен требованиями художественного стиля.

Когнитивно-коммуникативные аспекты прозаического текста, стилистические возможности художественной речи, языковые единицы, формирующие образ, лингвопрагматическое и лингвопоэтическое изучение лингвистических особенностей языковой личности посредством анализа лексико-семантических и стилистических средств, используемых писателями, представляет особый научный интерес.

В последние годы в узбекской лингвистике проведено много исследований, посвященных детальному раскрытию мастерства конкретного писателя в использовании языка и его уникальности в выборе единиц того или иного уровня языка. В подобных научных изысканиях, в основном при изучении литературного языка, основное внимание уделялось лингвопоэтике лексических единиц. Однако в отечественном языкознании образующие функции языковых единиц в художественных текстах до сих пор не изучены детально. Исходя из этого, актуальность темы обусловлена тем, что в данном исследовании изучаются лингвопоэтические и психолингвистические особенности языка прозы Уткира Хашимова в рамках

антропоцентрической парадигмы, а также принципы создания языкового образа, представляющие собой объект изучения лингвистической науки. Вместе с этим, в настоящее время не менее важным считается исследование способов выражения языкового образа в произведениях, воплощающих большинство особенностей современного узбекского языка, изучение специфики функций языкового мастерства творца и используемых им системы языковых единиц на основе современных требований. Указанное играет важную роль в деле «воспитания подрастающего поколения в духе патриотизма, преданности национальным традициям и ценностям, обеспечения полноценного внедрения государственного языка в стране»<sup>1</sup>.

Данное исследование в определенной мере служит реализации задач, отмеченных в указах Президента Республики Узбекистан УП–5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, № УП–5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» от 21 октября 2019 года, № УП–6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране» от 20 октября 2020 года, № УП–6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года» от 29 октября 2020 года, № УП–60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года; также постановлениях № ПП–3271 «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения» от 13 сентября 2017 года, № ПП–4479 «О широком праздновании тридцатилетия принятия закона Республики Узбекистан «О государственном языке» и других нормативно-правовых актах по данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** Особое значение в языкознании имеет лингвистический анализ художественных текстов, в частности проблема «языковой личности», которая в настоящее время находится в центре внимания филологов мира. Определенные исследования в этом направлении проводились как в мировом, так и в узбекском языкознании. В частности, в русской лингвистике проведено немало значимых исследований, посвященных когнитивно-коммуникативным аспектам художественного

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 6084-сонли Фармони // “Халқ сўзи” газетаси. – 2020, 22 октябрь. – № 267 // <https://lex.uz/docs/4561730>

текста (прозы), стилистике художественной речи, образующим языковым единицам<sup>1</sup>.

Во второй половине прошлого столетия Д.Н.Шмелев рассматривал значение языка в создании образа<sup>2</sup>, В.В.Виноградов – термин «языковая личность», особенности языка и стиля прозаических произведений<sup>3</sup>; Г.В.Степанов выделил язык как ключевой элемент в структуре художественного текста, обратив внимание на принципиальное отличие слова от материалов других видов искусства<sup>4</sup>. Если О.С.Ахманова создала словарь лингвистических терминов, то А.А.Липгарт в своих исследованиях<sup>5</sup> доказывает, что сущность художественного произведения как словесного искусства полностью раскрывается на основе лингвопоэтики.

Речевые привычки узбеков, их паралингвистические и социолингвистические аспекты изучались Ш.Искандаровой<sup>6</sup>, а первые научные суждения, связанные с «языковой личностью» в узбекском языкознании, были высказаны Д.Лутфуллаевой и Д.Худойберггановой<sup>7</sup>. Ш.Сафаров подчеркивает, что взгляды на деятельность переводчика как языковой личности, лингвоперсонологию, ее объект изучения и направления исследований имеют большое значение для проводимых сегодня исследований<sup>8</sup>. Д.Ниязова изучала типы языковой личности на примере произведений У.Хашимова. Данный исследователь приводит типологию языковой личности в художественных текстах в разрезе специфических черт личности – признаки социальности, возрастные особенности, пол, национальность, вероисповедание; разделяет индивидуальную или коллективную речь на группы в соответствии с ее значением<sup>9</sup>. В своем исследовании З.Р.Мукимова анализирует лингвопоэтические и

---

